

Date: 13th July-2025

**KORXONALAR MOLIVAVIY REJALASHTIRISH TIZIMI DOIRASIDA
BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

Shernazarov Farxad Shuxratovich

Annotatsiya: Bugungi kunda korxonalarda budjetlashtirish tizimi turli darajada shakllangan bo'lib, ko'p hollarda bu tizim eskirgan yondashuvlar asosida yuritiladi, natijada moliyaviy intizomning buzilishi, resurslar samarasiz taqsimlanishi va strategik maqsadlarga erishishda uzilishlar yuzaga keladi. Ushbu maqolada aynan budjetlashtirish jarayonining mohiyati, uning turlari, zamonaviy tamoyillari va takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: budjetlashtirish mexanizmi, resurslar, moliyaviy oqimlar, tamoyillar.

**IMPROVING THE BUDGETING PROCESS WITHIN THE FRAMEWORK OF
THE FINANCIAL PLANNING SYSTEM OF ENTERPRISES**

Shernazarov Farkhad Shukhratovich

Annotation: Today, the budgeting system in enterprises is formed to varying degrees, and in many cases this system is based on outdated approaches, which results in a violation of financial discipline, inefficient allocation of resources, and disruptions in achieving strategic goals. This article analyzes the essence of the budgeting process, its types, modern principles, and areas for improvement.

Keywords: budgeting mechanism, resources, financial flows, principles.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА БЮДЖЕТИРОВАНИЯ В РАМКАХ
СИСТЕМЫ ФИНАНСОВОГО ПЛАНИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ**

Шерназаров Фархад Шухратович

Аннотация: Сегодня система бюджетирования на предприятиях сформирована в разной степени, и во многих случаях она основана на устаревших подходах, что приводит к нарушению финансовой дисциплины, неэффективному распределению ресурсов и срывам в достижении стратегических целей. В данной статье анализируются сущность процесса бюджетирования, его виды, современные принципы и направления совершенствования.

Ключевые слова: механизм бюджетирования, ресурсы, финансовые потоки, принципы.

Date: 13th July-2025



Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar samarador faoliyat yuritishlari, o'z oldilariga qo'yilgan maqsadlarga erishishlari va raqobatbardosh bo'lishlari uchun puxta moliyaviy rejalashtirish va budjetlashtirish tizimiga ega bo'lishlari lozim. Aynan budjetlashtirish mexanizmi korxonada mavjud resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy oqimlarni to'g'ri taqsimlash, daromad va xarajatlar prognozini aniq belgilashda muhim ahamiyatga

ega. Keling, shu o'rinda moliyaviy rejalashtirish va budjetlashtirish: nazariy asoslar xususida mulohaza yuritamiz. Moliyaviy rejalashtirish — bu korxona faoliyati davomida mavjud moliyaviy resurslarni boshqarish, ularni samarali taqsimlash va korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Ushbu rejalashtirish qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Uning asosiy vazifasi korxonaning daromadlarini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, investitsion va operatsion faoliyatni muvozanatlashtirishdir. Budjetlashtirish esa moliyaviy rejalashtirishning amaliy ifodasidir. U orqali korxona bo'limlari darajasida daromad va xarajatlar prognoz qilinadi, moliyaviy oqimlar aniq rejalashtiriladi va nazorat qilinadi. Budjetning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

Rejalashtirish: daromad va xarajatlarning taxminiy miqdorini belgilash;

Koordinatsiya: bo'limlararo muvofiqlikni ta'minlash;

Nazorat: amaldagi ko'rsatkichlarni budjet bilan solishtirish;

Baholash: xodimlar va bo'limlarning faoliyatini baholash mezonini sifatida foydalanish.

Shuningdek, har bir korxonada samarali budjetlashtirish tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Xususan, maqsad va strategiyani belgilash muhim ahamiyatga ega. Chunki, budjetlashtirishdan oldin korxonaning umumiy strategiyasi, biznes-rejasi va ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi. Bu bosqichda korxona rahbariyati bozor imkoniyatlarini, raqobat muhitini va mavjud resurslarni tahlil qiladi. Bundan tashqari, budjetlar tuzilmasini shakllantirish lozim.

Korxonada budjetlar quyidagi ko'rinishlarda ishlab chiqiladi:

Operatsion budjet (sotuv, ishlab chiqarish, mehnat resurslari va h.k.); Moliyaviy budjet (naqd pul oqimi, foyda va zarar budjeti);

Kapital budjet (investitsion loyihalar va asosiy vositalar xarajatlari).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bo'limlar o'z budjet loyihalarini taqdim etadi va ular markazlashgan holda yig'iladi, so'ngra tahlil qilinadi va korxonaning umumiy strategiyasiga muvofiqligi baholanadi. Rahbariyat tomonidan budjetlar yakuniy

Date: 13th July-2025

ko'rinishda tasdiqlanadi va ijroga qaratiladi. Amaldagi ko'rsatkichlar doimiy ravishda budjetdagi rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan solishtirib boriladi va tafovutlar bo'yicha tahlillar o'tkaziladi. Budjetlashtirish tizimini takomillashtirishning qator yo'llari mavjud:

1. Moslashuvchan (rulonli) budjetlashtirishga o'tish. Rulonli budjetlashtirish — bu har oy (yoki kvartal) yangilanadigan, sharoitga moslashtiriladigan budjet tizimidir. U korxonaga iqtisodiy va bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga tezkor javob berish imkonini beradi.

2. Ishtirok etuvchi (pastdan yuqoriga) budjetlashtirishni joriy qilish. Budjet tuzishda bo'limlar rahbarlari va xodimlari faol ishtirok etadi. Bu tizim xodimlarning mas'uliyatini oshiradi va real sharoitni inobatga olgan rejalashtirishni ta'minlaydi.

3. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. ERP (Enterprise Resource Planning), BI (Business Intelligence) kabi tizimlar yordamida budjetlarni avtomatlashtirish, tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyatlari oshadi.

4. KPI (kalit ko'rsatkichlar) bilan integratsiya qilish. Budjet ko'rsatkichlari KPI tizimi bilan bog'lanib, xodimlar faoliyati samaradorligini aniqlashda mezon sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kompaniyaning xarajatlarini kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishda moliyaviy menejmentning o'rnida katta. Budjetlashtirish, xarajatlarni tahlil qilish, avtomatlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali kompaniya xarajatlarini samarali kamaytirish mumkin. Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy menejment strategiyalaridan samarali foydalanish kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kelajakda kompaniyalar xarajatlarni kamaytirish uchun sun'iy intellekt va raqamli moliyaviy menejment tizimlaridan keng foydalanishlari zarur. Bu esa kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, korxona faoliyatida barqarorlik, samaradorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun moliyaviy rejalashtirish va budjetlashtirish tizimini takomillashtirish zarur. Bugungi kunda an'anaviy, markazlashgan, qotirilgan budjetlash yondashuvlarining o'rnini moslashuvchan, ishtirok etuvchi, texnologik jihatdan rivojlangan yondashuvlar egallamoqda. Aynan mana shu o'zgarishlarni o'z faoliyatiga tatbiq etgan korxonalar kelajakda moliyaviy barqarorlikka erishadi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev A.A., "Korxonaning moliyaviy boshqaruvi", T: 2022-yil.
2. Ministry of Finance of Uzbekistan, "Davlat byudjetini shakllantirish bo'yicha uslubiy qo'llanma", 2023.
3. Axmedov O. A., & Hamidov B. B. (2021). Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to'g'ri hisobga olish zaruriyati.

